

RAQAMLI XIZMATLARNING IQTISODIY SAMARADORLIGI: MOBIL TO’LOV TIZIMLARI MISOLIDA

Askarov Ulugbek Shavkat o’g’li

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU tadqiqotchisi

Annotatsiya. O’zbekiston raqamli iqtisodiyot sari faol yo’l olayotgan bir vaqtida, mobil to’lov tizimlari – xususan Payme, Click, Apelsin va UzumPay – aholining moliyaviy xatti-harakatlarini tubdan o’zgartirmoqda. Ushbu tadqiqotda raqamli to’lov xizmatlarining xizmatlar sektori va chakana savdo tizimidagi iqtisodiy samaradorligi, shu jumladan tranzaksiya tejamkorligi, operatsion xarajatlar, va soliq tushumlariga ta’siri o’rganiladi. Statistik ma’lumotlarga ko’ra, 2024-yilda mobil to’lovlar orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi 123,4 trln so’mdan oshgan bo’lib, bu naqd pul aylanmasining qisqarishiga va rasmiy aylanma kengayishiga olib keldi. Mobil to’lovlar vaqt tejalishi, hujjatsiz to’lov xavflarining kamayishi va soliqqa tortish imkoniyatining oshishi nuqtai nazaridan iqtisodiy samaradorlikni sezilarli darajada kuchaytirayotgani aniqlangan. Tadqiqot natijalari asosida davlat siyosatini qo’llab-quvvatlovchi tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so’zlar: raqamli xizmatlar, mobil to’lovlar, iqtisodiy samaradorlik, tranzaksiya xarajatlari, rasmiy aylanma, soliq tushumlari, Payme, Click, raqamli iqtisodiyot.

So’nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi O’zbekiston iqtisodiyotining barcha sohalarida raqamlashtirish jarayonlarini bosqichma-bosqich chuqurlashtirdi. Ayniqsa, moliyaviy xizmatlar sohasida mobil to’lov tizimlarining joriy etilishi aholining kundalik iqtisodiy faoliyatini soddalashtirib, tranzaksiyalar tezligi va xavfsizligini ta’minalashda muhim rol o’ynamoqda. Payme, Click, Apelsin, UzumPay kabi platformalar orqali kommunal to’lovlar, davlat xizmatlari, onlayn savdo, transport, tibbiyot, ta’lim, turizm kabi xizmatlar sektori bilan real vaqt rejimida hisob-kitoblar amalga oshirilmoqda.

2024-yilning dastlabki olti oyi davomida aholining mobil to’lov tizimlari orqali amalga oshirgan tranzaksiyalar hajmi 123,4 trillion so’mga yetdi (Markaziy bank, 2024). Bu 2023-yilning mos davriga nisbatan 36,7% o’sishni bildiradi. Bunday raqamlar mobil to’lovlar orqali iqtisodiy aylanma hajmining o’sishini, naqd pul muomalasining qisqarishini va rasmiy iqtisodiyot ulushining ortishini ko’rsatadi. Naqd pul bilan bog’liq xavf-xatarlar, vaqt va logistik xarajatlarning kamayishi, tranzaksiya tezligining oshishi mobil to’lov tizimlarining iqtisodiy samaradorligini ta’minalaydi.

Mobil to’lov tizimlarining iqtisodiyotdagi ijobjiy ta’siriga qaramay, bu sohada bir qator muammolar ham mavjud:

1. Raqamli xizmatlardan foydalanish bo'yicha hududiy tafovutlar;
2. Aholining raqamli savodxonligi pastligi;
3. Norasmiy sektordagi aylanmalarning raqamlashtirilmaganligi;
4. Mobil to’lov tizimlarining integratsiya darajasi pastligi;
5. Soliqqa tortish bazasi cheklanganligi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi yechimlar taklif etiladi:

- Hududiy raqamli infratuzilmani rivojlantirish;
- Aholi raqamli moliyaviy savodxonligini oshirish;
- Kichik biznesni mobil to’lov tizimlariga ularash;
- Davlat xizmatlari va ta’lim muassasalarini to’liq integratsiyalash;
- Soliq nazoratini avtomatlashtirish asosida fiskal nazoratni kuchaytirish.

World Bank (2023) ma'lumotlariga ko'ra, raqamli moliyaviy xizmatlar infratuzilmasining rivojlanishi kambag'allikni 20% gacha kamaytirishi mumkin. OECD (2022) tahliliga ko'ra, mobil to'lovlar xizmat ko'rsatish sektorida samaradorlikni 25-30% gacha oshiradi. Stat.uz ma'lumotlariga ko'ra, aholining raqamli to'lov xizmatlaridan foydalanish ulushi so'nggi 5 yilda 3 barobar oshgan. Bu kabi ko'rsatkichlar mobil to'lov tizimlarining iqtisodiy samaradorligi nafaqat qulaylik balki makroiqtisodiy barqarorlikka ijobjiy ta'sir ko'rsatishini isbotlaydi.

Xulosa. Raqamli to'lov xizmatlari – zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas komponenti bo'lib, O'zbekistonda ham ushbu tizim tez sur'atlarda kengayib bormoqda. Mobil to'lovlar orqali tranzaksiya xarajatlarining kamayishi, vaqt tejalishi, soliqqa tortish imkoniyatining oshishi kabi jihatlar xizmatlar sektorining umumiyl samaradorligini oshirmoqda. Biroq, mavjud infratuzilmaviy, institutsional va axborotga oid cheklolvar ushbu tizimning barcha hudud va ijtimoiy qatlamlarda to'liq joriy bo'lishiga to'sqinlik qilmoqda. Shu sababli, davlat siyosati raqamli xizmatlar infratuzilmasini chuqurlashtirish, aholining raqamli savodxonligini oshirish va fiskal monitoringni takomillashtirishga yo'naltirilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. 2024-yil 1-iyul statistik axboroti. www.cbu.uz
2. Jahon banki (World Bank). Digital Financial Inclusion Report, 2023.
3. OECD. "Digitalisation and Economic Productivity in Financial Services", 2022.

4. Statistika agentligi. Iqtisodiy faollik va raqamli to’lovlar monitoringi. 2023-2024.

5. Apelsin va Payme kompaniyalari yillik ochiq hisobotlari. 2023.

6. UNCTAD. “FinTech for Development”, 2021.

7. Islomov Z. (2023). “Mobil to’lov tizimlarining iqtisodiy samaradorligi”.

TDIU Ilmiy axborotnomasi.

8. IT Park O’zbekiston. Raqamli xizmatlar ekotizimi tahlili. 2024.

9. Click.uz va UzumPay rasmiy blog va tahliliy sahifalari. 2024.

10. Moliya vazirligi (2024). Raqamli to’lovlarning soliqqa ta’siri bo'yicha tahliliy hisobot.